

**OLIY HARBIY TA'LIM MUHITIDA KURSANTLAR IJTIMOYILASHUVI
JARAYONLARINI SOTSIOLOGIK TADQIQ QILISH**

Jozilov Azamat Avazovich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Qo'shinlar kundalik faoliyati va qo'shinlarni boshqarish kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy harbiy ta'lim muhitida kursantlar ijtimoiylashuvi jarayonlarini sotsiologik tadqiq qilishdagi muammolar aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy harbiy ta'lim muhiti, kursant, ijtimoiylashuv, sotsiologik tadqiq qilish.*

Jahon ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va keng ko'lamlı vazifalar doirasida ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Belfield pedagogical university (Germaniya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Buyuk Britaniya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), University of Bridgeport (Chikago) kabi bir qator nufuzli ta'lim va ilm markazlarida, jumaldan, talabalarning ijtimoiy mas'uliyati hamda hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, ularning tashabbuskorlik, ta'labchanlik, intiluvchanlik, mas'uliyatlik, ijtimoiy hayot jabhalarida mustaqil qarorlar qabul qilish komponentlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Talabalar ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda ularning axloqiy-tarbiyaviy dunyoqarashi, ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy, reproduktiv-kommunikativ tayyorgarligi, jamiyat hayotiga ongli munosabati, tafakkurini rivojlanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy harbiy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini ilg'or xorijiy tajribalar asosida jadallashtirish, talabalar ijtimoiy mas'uliyatni to'liq anglashiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishining pedagogik mexanizmlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida mamlakatda o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy

mas'uliyatli etib tarbiyalash, kelajak avlod taqdiri uchun jon kuydiradigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan, ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan holda samarasini bermoqda. Xususan, ta'lim jarayonidagi islohotlarning ijodkori, harakatga keltiruvchisi, amalga oshiruvchisi, sub'ekti sifatida tashabbuskor shaxs maydonga chiqadi. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash sohasida vatanparvar shaxsni tarbiyalash va uni yetuk mutaxassis, kelajak avlod bunyodkori sifatida kamolga yetkazish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirish mamlakatimiz har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish ularga ta'lim-tarbiya berayotgan ofitserlar tarkibining ham asosiy vazifasidir.

Ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan global makonda, qarama-qarshiliklar, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbini egallash uchun kechayotgan kurash nihoyatda kuchaygan bir vaqtda ularning tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarashni har qachongidan ham dolzarb vazifa sifatida davrning o'zi taqazo etmoqda. Chunki biz yashayotgan zamonning achchiq haqiqati shundan iboratki, katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlarni agar sog'lom kuchlar to'g'ri yo'lga boshlamasa, g'arazli niyatlar bilan yurgan buzg'unchi kuchlar o'z ortidan ergashtirib ketishi mumkin. Shunday ekan, hozirgi kunda yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida hayotiy ko'nikmalarining mustahkamlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoniga oid ilmiy tadqiqotlarda asosiy muammolardan biri talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish orqali mas'uliyatli kadrlar sifatida tayyorlash sifatida qaralmoqda. Masalan, pedagogik ilmiy tadqiqotlar doirasida A.Begmatov talaba-yoshlarning ma'naviy-ahloiy qarashlarini rivojlantirish, O.Musurmonova yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish, E.G'oziyev shaxsning aqliy tafakkuri orqali ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish, Q.Quronboyev talabalarining ma'naviy-ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi.

A.Begmatov o'z tadqiqotida ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs faolligi uning jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o'rtasida uyg'unlikni mavjud bo'lishi, agar mavjud bo'lsa bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo'lida ham o'z manfaatlari yo'lida ham jonbozlik ko'rsatishga undaydi" deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Chunki, inson tarbiyasida insonparvarlik ijtimoiy mas'uliyatlilik tamoyillari alohida o'rin egallashini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Q.Quronboyev talaba-yoshlarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish uslublari va mazmuni, pedagogik asoslari, ma'naviy-axloqiy muammolar, yoshlar

ta'lim-tarbiyasida ongli intizomning o'rni, burch va mas'uliyat, talabada jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirishning asosiy masalalariga to'xtalib o'tgan.

O.Musurmonovning ilmiy izlanishlarida ta'kidlanishicha, ta'lim-tarbiya axloqiy ong, vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning fe'l-atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Axloqning mag'zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalminalchilik, vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e'tibor, burch hissi hamda kamtarlik, ko'zbo'yamachilik va yolg'izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

E.G'oziyev shaxsning aqliy tafakkuri orqali ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish masalalariga to'xtalib. tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita yaxlitlangan holda aks ettiruvchi shaxsning ichki ruhiy jarayoni hamda sotsial sababiy bog'lanishlarni anglashda jamiyat hayotida yangilik ochishga bo'lgan prognozni qilishga yo'naltirilgan intellektual aqliy faoliyat ekanini ta'kidlaydi.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan T.F.Ivanova, G.V.Kovaleva, N.K.Golubeva kabilar tadqiqotlarida ijtimoiy mas'uliyat muammosiga oid ilmiy ishlar tahlili uning tavsifiga bo'lgan yondashuvlarning turli-tumanligidan dalolat beradi.

T.F.Ivanova insonning o'z burchini bajarishga bo'lgan qobiliyati, shaxsning axloqiy qadriyatlari, individning o'z xulq-atvori, umum tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishi, o'z majburiyatlarini bajarish jarayoni jamiyat va o'zi oldida o'z harakat faoliyati uchun hisob berishga tayyorlik sifatleri, intellektual-irodaviy jihatlariga to'xtalib o'tgan.

G.V.Kovalyova "mas'uliyat" tushunchasiga shunday ta'rif beradi: mas'uliyat – insonning xulq-atvori, uning faoliyatning umum tomonidan qabul qilingan maqsadlar va qadriyatlarga bog'liqligini anglashi asosida belgilanadigan shaxsning integral sifati.

N.K. Golubeva mas'uliyat haqida fikr yuririb, ijtimoiy o'zini his qilish va ijtimoiy identifikatsiya bilan bir vaqtda shaxsning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan sifatlari, insonning butun hayotiy faoliyatida ijtimoiy yo'naltirilganligi, yaxlit xislat sifatida ijtimoiy xulq-atvorning asosiy jihatlariga to'xtalib o'tgan.

Oliy ta'lim muassasalari Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda shaxsiy javobgarlik sifatleri, shaxsiy qobiliyati, o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi nazorat qilishi, ijtimoiy me'yorlar orqali tarbiyalash muhim o'rin tutadi.

Jumladan, Harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida quyidagilarni nazarda tutadi:

a) oliy ta'lim muassasalari talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda shaxsning ichki ruhiyatiga ta'sir etuvchi motivlar orqali talabani o'z "Men"ini shakllantirish;

b) oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiluvchi ta'sir doiralari yaqin atrofdagi guruhlar jamoasi, hamkasblari, do'stlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida mas'uliyatli bo'lishini rivojlantirish;

v) talabalar ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish, ta’lim jarayonida pedagoglar faoliyat jarayoni bo’yicha guruh komandiri, soxa mutaxassisi hamda ijtimoiy harakatlar jarayoniga pedagogik ta’sir etishning ta’lim vositalari bilan rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida. PF-60 son. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4166-son qarori.